Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
<b>Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи</b>	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
<b>Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich</b>	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
<b>Sherqulov Nodir Erkin o'g'li</b>	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
<b>Гулноза Тохировна Самиева</b>	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
<b>Majidov Nizomjon</b>	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромов Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



## BANKLARDA MUMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH: SAMARALI STRATEGIYA VA YONDASHUVLAR

**Mirsaliyev Erkin Ergashevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tyutori

**Annotatsiya:** Muammoli kreditlar bilan ishlash banklar uchun eng qiyin vazifalardan biri bo'lib, alohida e'tibor va malaka talab qiladi. Ushbu maqolada banklarda mummoli kreditlar bilan ishlashning asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan hamda ularni hal qilish bo'yicha samarali strategiya va yondashuvlar taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** bank, bank faoliyati, scoring, kredit, zaxira, muammoli kredit, NPL, xatar, kredit monitoringi, strategiya, optimallashtirish.

**Abstract:** Dealing with problem loans is one of the most difficult tasks for banks and requires special attention and skills. This article examines the main aspects of working with problem loans in banks and proposes effective strategies and approaches to combat them.

**Key words:** bank, banking activity, scoring, loan, reserve, problem loan, non-performing loans, risk, credit monitoring, strategy, optimization.

**Аннотация:** Работа с проблемными кредитами является одной из самых сложных задач для банков и требует особого внимания и навыков. В данной статье рассмотрены основные аспекты работы с проблемными кредитами в банках и предложены эффективные стратегии и подходы борьбы с ними.

**Ключевые слова:** банк, банковская деятельность, скоринг, кредит, резерв, проблемный кредит, неработающие кредиты, риск, кредитный мониторинг, стратегия, оптимизация.

### KIRISH

Zamonaviy dunyoda kredit iqtisodiy rivojlanishning eng muhim manbayi bo'lib qolmoqda. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, ham alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar, ham butun davlatlar va ularning hukumatlari tomonidan faol qo'llaniladi. Biroq amaliyotda banklar tomonidan berilgan kreditlar har doim ham o'z vaqtida qaytarilavermaydi.

Bank faoliyatining butun tarixi davomida muddati o'tgan va muammoli bank kreditlari ham bank hamjamiyatini, ham butun jamiyatni tashvishga solib kelgan. Ko'pgina hollarda kredit va investitsiya jarayonini tashkil etishdagi xatolar moliyaviy barqarorlikni yo'qotishga, o'z kapitalini isrof qilishga va hatto kredit tashkilotlarining bankrotligiga olib keladi. Muddati o'tgan kreditlar yangi kredit berishni to'sib qo'yadi va banklarning rentabelligi va to'lov qobiliyatini pasaytiradi. Ishlamaydigan kreditlarning yuqori darajasi yetarlicha katta miqdordagi banklarga ta'sir qilganda, moliya tizimi barqaror ishlashni to'xtatadi va banklar iqtisodiyotni kreditlash funksiyasini muvaffaqiyatli bajarolmaydi. Moliya bozori faoliyatidagi uzilishlar va banklar faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklar o'z navbatida iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, – “Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”. Kuchli iqtisodiyotni bo'lsa kuchli bank tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bank tizimi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda amalda lokomotiv vazifasini bajaradi.

Muammoli kreditlar (NPL, Non-performing loan-ishlamaydigan kreditlar) – bu qaytarish muddati 90 kundan o'tgan va qoniqarsiz, shubhali, umidsiz, deb tasniflangan kreditlardir.





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Banklarda muammoli kreditlar hajmi oshib borar ekan, ularni kelib chiqish sabablari va uni oldining olish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish zaruriyati paydo bo'ldi.

G'arb olimlarining muammoli kreditlar haqidagi fikrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ular bunday kreditlarni iqtisodiyot va jamiyat uchun potensial xavfli, deb bilishadi. Ularning ta'kidlashicha, umidsiz kreditlar moliyaviy inqirozlarga olib kelishi, banklarning kredit obro'sini yomonlashishi va uy xo'jaliklarining qarz yukini oshirishi mumkin. Shuningdek, olimlar kreditlar berishda nazorat qiluvchi organlar va banklar tomonidan qattiq nazorat o'rnatish zarurligiga, shuningdek, kredit xizmatlari iste'molchilarining moliyaviy savodxonligini oshirish muhimligiga e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, ular muammoli kreditlarni hal qilishning turli usullarini taklif etadilar, masalan, qarzlarni qayta tuzish, moliyaviy ta'lim va maslahatlar berish, qarz oluvchilar uchun talablarni kuchaytirish. Umuman olganda, G'arb olimlarining fikr-mulohazalari muammoli kreditlar muammosining jiddiyligi va uni hal etish choralarini ko'rish zarurligini ta'kidlaydi.

Jumladan, g'arblik iqtisodchi Piter Rouzning fikricha, qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o'tishini anglatadi.

Rossiyalik iqtisodchi olim Lavrushin muammoli kreditlarni bank xodimlarining qarz oluvchiga yoki uning garoviga nisbatan shubhalari nuqtayi nazaridan tavsiflaydi. Muammoli kreditning bu tushunchasi kengroq bo'lib, I, II, va III sifat toifalaridagi kreditlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Mahalliy olimlardan professor Sh. Z. Abdullayevaning yondashuviga ko'ra, substandart kreditlar ham o'z vaqtida qaytarilmaganligi tufayli muammo keltiruvchi kreditlar sifatida tahlil qilinishi mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra muammoli aktivlar – sifati "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan aktivlardir.

Bank nazorati bo'yicha Xalqaro Bazel qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, muammoli kredit bu – qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajarish muddatlarining sezilarli darajada buzilishi, qarz oluvchining moliyaviy ahvolidan sezilarli darajada yomonlashuvi va garov sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki hatto yo'qotilishi bo'lgan kreditdir.

1-jadvalda tijorat banklarining muammoli kreditlari bo'yicha 2023-yil 1-oktyabr va 1-sentabr holatiga solishtirma ma'lumotni ko'rib chiqamiz:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yil sentabr oyi yakuni bo'yicha bank tizimida muammoli kreditlar hajmi 441 mlrd so'mga kamaydi. Kredit portfeli hajmi 6,89 trln so'mdan ziyodga ko'paygan va bank tizimining jami kredit portfeli 451,6 trln so'mni tashkil qilmoqda. 2023-yil 1-oktyabr holatiga muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi esa 3,73 foizga yetgan (-0,16%).

Davlat banklaridagi NPL ko'rsatkichi 0,07 foizga kamayib, 3,82 foizni tashkil qilmoqda. Oy davomida muammoli kreditlar hajm jihatdan Turonbank (-57 mlrd so'm), Asakabank (-36 mlrd so'm) hamda O'zsanoatqurilishbank (-29 mlrd so'm) larda nisbatan kamaygan. Aloqabank, Agrobanklarda bo'lsa muammoli kreditlar hajmi ko'paygan. Davlat ulushi ustuvor bo'lmagan banklardagi NPL ko'rsatkichi 0,38 foizga kamayib, 3,32 foizni tashkil qilmoqda. Ipoteka-bank (-448 mlrd so'm), Universalbank (-29 mlrd so'm) larda nisbatan ko'proq muammoli kreditlar o'sishi kuzatilgan. Ipotekabankda joriy yil iyul va avgust oylarida NPL ko'rsatkichi 1 trln so'mdan ko'proqqa o'sgan bo'lsa, sentabr oyida qariyb 450 mlrd so'mga kamaygan. Shu vaqtga qadar muammoli kreditlar ulushi bo'yicha yetakchi o'rinda bo'lgan Avo bank (oldingi O'zagroeksportbank) ning NPL'i to'liq tozalangan. Hozirda Octobank (83,33%), Garantbank (17,79%), Eron Soderot bank (13,85%) hamda Madad invest bank (12,82%) da NPL ko'rsatkichi 2 xonali raqamda qolmoqda. Shuningdek, O'zmilliybank (3,00 trln so'm), Ipoteka-bank (2,59 trln so'm) hamda Xalq banki (2,14 trln so'm) muammoli kreditlar miqdori bo'yicha yetakchi o'rinda turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 18-aprelda 3427-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizomga asosan banklar kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash hamda muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash maqsadida kreditlarni yakka tartibda va portfel kesimida monitoring qilish tizimini ishlab chiqishi hamda amaliyotga joriy etishi kerak.

Nizomga asosan tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni monitoring qilishga quyidagi talablar qo'yilgan.



# 1-jadval: Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)ning 2023-yil 1-oktyabr va 1-sentabr holatiga solishtirma ma'lumot

Тижорат банкларининг муаммолі кредитлари (NPL) нинг  
2023 йил 1 октябр ва 1 сентябр ҳолатига солиштирма маълумот

№	Банк номи	Кредит портфель			Муаммолі кредитлар (NPL)			Муаммолі кредитларнинг жами кредитлардаги улуши		
		1 сентябр ҳолатига	1 октябр ҳолатига	Ўзгариши (+,-)	1 сентябр ҳолатига	1 октябр ҳолатига	Ўзгариши (+,-)	1 сентябр ҳолатига	1 октябр ҳолатига	Ўзгариши (+,-)
	<b>Жами</b>	<b>444 723</b>	<b>451 610</b>	<b>6 887</b>	<b>17 269</b>	<b>16 828</b>	<b>-441</b>	<b>3,88%</b>	<b>3,73%</b>	<b>-0,16%</b>
	<b>Давлат улуши мавжуд банклар</b>	<b>320 437</b>	<b>324 035</b>	<b>3 598</b>	<b>12 669</b>	<b>12 589</b>	<b>-79</b>	<b>3,95%</b>	<b>3,89%</b>	<b>-0,07%</b>
1	Ўзбекистон банк	93 285	93 536	251	3 023	3 001	-22	3,24%	3,21%	-0,03%
2	Ўзсаноатқурилишбанк	55 091	55 345	255	1 591	1 562	-29	2,89%	2,82%	-0,06%
3	Аска банк	39 722	40 074	351	1 803	1 767	-36	4,54%	4,41%	-0,13%
4	Агробанк	51 558	53 443	1 885	1 862	1 898	36	3,61%	3,55%	-0,06%
5	Халқ банки	23 021	23 401	380	2 163	2 140	-22	9,39%	9,15%	-0,25%
6	Бизнесни ривожлантириш банки	21 753	22 174	421	920	924	4	4,23%	4,17%	-0,06%
7	Микрокредитбанк	14 119	14 197	77	730	729	-1	5,17%	5,14%	-0,03%
8	Турон банк	10 663	10 903	240	363	307	-57	3,40%	2,81%	-0,59%
9	Алоқа банк	11 142	10 881	-261	214	259	45	1,92%	2,38%	0,46%
10	Пойтахт банк	82	80	-2	0	0	-0,1	0,32%	0,20%	-0,12%
	<b>Бошқа банклар</b>	<b>124 286</b>	<b>127 576</b>	<b>3 289</b>	<b>4 601</b>	<b>4 239</b>	<b>-362</b>	<b>3,70%</b>	<b>3,32%</b>	<b>-0,38%</b>
11	Ипотека банк	34 558	35 107	550	3 037	2 589	-448	8,79%	7,37%	-1,41%
12	Капитал банк	23 581	24 205	624	223	285	62	0,94%	1,18%	0,23%
13	Ҳамкор банк	14 833	15 128	295	88	97	9	0,59%	0,64%	0,05%
14	Ипак йўли банк	10 413	10 630	217	263	264	1	2,52%	2,48%	-0,04%
15	Ориент Финанс банк	7 234	7 547	313	19	16	-3	0,26%	0,21%	-0,05%
16	Инвест Финанс банк	6 068	6 197	128	93	91	-2	1,54%	1,47%	-0,06%
17	Траст банк	4 727	4 837	110	125	124	-1	2,64%	2,55%	-0,09%
18	Давр банк	4 251	4 474	223	31	33	2	0,73%	0,73%	0,00%
19	Тенге банк	3 850	3 828	-22	73	81	8	1,90%	2,12%	0,22%
20	Азия Альянс банк	2 952	3 161	209	63	79	15	2,15%	2,50%	0,35%
21	Анор банк	3 044	3 079	35	42	50	8	1,39%	1,62%	0,23%
22	Тибиси банк	2 781	2 954	173	64	66	2	2,30%	2,22%	-0,08%
23	ЎзКДБ банк	2 061	2 143	82	0	0	0	0,00%	0,00%	0,00%
24	Гарант банк	1 097	1 031	-65	173	183	10	15,79%	17,79%	1,99%
25	Зираат банк	1 172	1 542	370	26	25	-1	2,25%	1,60%	-0,65%
26	Универсал банк	1 117	1 111	-6	35	7	-29	3,16%	0,59%	-2,57%
27	Октобанк	260	258	-2	214	215	1	82,06%	83,33%	1,27%
28	Мадад инвест банк	222	257	35	30	33	3	13,57%	12,82%	-0,74%
29	Эрон Содерот банк	27	25	-2	1	4	3	4,65%	13,85%	9,21%
30	Апекс банк	19	22	3	0	0	0	0,00%	0,00%	0,00%
31	АВО банк	0	7	7	0	0	0	97,04%	0,00%	-97,04%
32	Смарт банк	1	0	-1	0	0	0	0,00%	0,00%	-
33	Узум банк	0	0	0	0	0	0	0,00%	0,00%	-
34	Ҳаёт банк	21	21	0	0	0	0	0,00%	0,00%	-
35	Янги банк	0	12	12	0	0	0	0,00%	0,00%	-

Kreditni monitoring qilish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qarz oluvchining kredit hujjatlarini (elektron yoki qog'oz shaklida) shakllantirish va yuritish;
- qarz oluvchining kredit hujjatlarini tekshirish;
- kreditning maqsadli ishlatilishini (agar kredit shartnomasida maqsadligi belgilangan bo'lsa) monitoring qilish;
- qarz oluvchining moliyaviy holatini, kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash bo'yicha kredit shartnomasi shartlarining bajarishini monitoring qilish;
- qarz oluvchining kredit shartnomasining boshqa shartlariga rioya etishini monitoring qilish;
- ta'minotning mavjudligi, yetarliligi va butligini hamda uning bozor qiymati qayta baholanishini monitoring qilish;
- kredit tavakkalchiligidan hajmi va u bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarning yetarliligini monitoring qilish.

## XULOSA TAKLIFLAR

Muammoli kreditlar bilan ishlash banklar uchun eng qiyin vazifalardan biri bo'lib, alohida e'tibor va malaka talab qiladi. Quyida tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning asosiy jihatlari ko'rib chiqamiz hamda ularni hal qilish bo'yicha samarali strategiya va yondashuvlarni taklif qilamiz.

### 1. Xatarlarni tahlil qilish va baholash:

Muammoli kreditlar bilan ishlashda birinchi qadam risklarni tahlil qilish va baholashdir. Bank qarz oluvchini, uning moliyaviy ahvolini, to'lov qobiliyatini va kreditni qaytara olish qobiliyatini har tomonlama o'rganishi kerak bo'ladi. Shuningdek, mijozning kreditni to'lash qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan mavjud iqtisodiy vaziyat, tarmoq omillari va boshqa tashqi sharoitlarni hisobga olishi kerak.

### 2. Shaxsiy yechimlarni ishlab chiqish:

Har bir muammoli vaziyat individual yondashuvni talab qiladi. Bank qarz oluvchining o'ziga xos sharoitlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashuvchan strategiyani ishlab chiqishi kerak. Muammoni hal qilishning turli xil variantlari mavjud, jumladan, kredit shartnomasini qayta tuzish, to'lov jadvalini o'zgartirish, foiz stavkasini kamaytirish yoki hatto qarzni qisman hisobdan chiqarish.



### 3. Qarz oluvchi bilan o'zaro munosabatlar:

Muammoli kreditlar bilan ishlashning kaliti qarz oluvchi bilan faol hamkorlikdir. Muammolarning sabablarini aniqlash va eng yaxshi yechim topish uchun bank ochiq va ishonchli muloqotni o'rnatishi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, o'zaro tushunish va hamkorlik muammoni muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

### 4. Qo'shimcha yordam ko'rsatish:

Ba'zi hollarda qarz oluvchilar kreditni to'lash uchun qo'shimcha yordam talab qiladi. Bank moliyaviy maslahatlar berishi, qarzni to'lash rejasini ishlab chiqishda yordam berishi yoki hatto qarz oluvchining moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish uchun vaqtinchalik moliyalashtirishni taqdim etishi mumkin. Bunday chora-tadbirlar risklarni kamaytirishga va kreditni qaytarish imkoniyatini oshirishga yordam beradi.

### 5. Monitoring va nazorat:

Muammoli kredit bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng bank shartnoma shartlariga rioya etilishi ustidan doimiy monitoring va nazorat olib borishi shart. Bu bankka vaziyatning o'zgarishiga tezda javob berish va xavflarni minimallashtirish uchun zarur choralarni ko'rish imkonini beradi. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini muntazam tahlil qilish va qarzni o'z vaqtida undirish bank yo'qotishlarini kamaytirishga yordam beradi.

Muammoli kreditlar bilan ishlash professional yondashuv va malakali risklarni boshqarishni talab qiladi. Banklar yo'qotishlarni minimallashtirish va o'z faoliyatining barqarorligini ta'minlaydigan samarali strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqishga intilishi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, har bir muammoli vaziyat o'ziga xosdir va uni muvaffaqiyatli hal qilish uchun individual yondashuvni talab qiladi.

### Banklarda muammoli kreditlarni optimallashtirish

Muammoli kreditlarni optimallashtirish – muammoli kreditlar portfelining sifatini oshirish va bank uchun risklarni kamaytirishga qaratilgan jarayondir. Quyida banklardagi muammoli kreditlarni optimallashtirishning bir necha asosiy usullarini taklif etamiz:

1. Kreditni qayta tuzish: Bank qarz oluvchiga kredit shartlarini o'zgartirishni taklif qilishi mumkin, masalan, foiz stavkasini pasaytirish, to'lash muddatini uzaytirish yoki kreditning asosiy summasi bo'yicha kredit ta'tili berish. Bu qarz oluvchiga qarzni to'lash va bank uchun xavfni kamaytirishga yordam beradi.
2. Muammoli kreditlarni sotish: Bank muammoli kreditlarni boshqa moliya institutiga yoki qarzni undirishga ixtisoslashgan kompaniyaga sotishi mumkin. Bu bankka muammoli kreditlarni keyingi boshqarishdan qochish va asosiy faoliyatiga e'tibor qaratish imkonini beradi.
3. Qarzni undirish: Bank qarzni undirish bo'yicha sudga da'vo qilish, garovni undirish yoki sotish kabi choralarni ko'rishi mumkin. Bu bankka qarzni to'lash va yo'qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.
4. Zaxiralarni tashkil etish: Bank muammoli kreditlar hisobidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar yaratishi mumkin. Bu bankka o'z risklarini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.
5. Kredit skoring tizimini takomillashtirish: Bank risklarni aniqroq baholash va muammoli kreditlarning oldini olish uchun qarz oluvchini baholash va kredit skoring tizimini takomillashtirishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir bank o'zining ichki siyosati va tartiblariga qarab muammoli kreditlarni optimallashtirishning o'ziga xos usullariga ega bo'lishi mumkin. Yuqoridagi takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi banklardagi muammoli kreditlar hajmining pasayishiga, tijorat banklari moliyaviy holatining barqarorlashishiga, shu orqali milliy iqtisodiyotimiz o'sishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. –T.: Moliya, 2002. 117-b.
2. Дробозина Л. А. Финансы, денежное обращение, кредит. – Москва. ЮНИТИ, – 2000. – 256-с.
3. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. С англ. –М.: Дело, 1997, 125-с.
4. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент)/ Под ред. д-ра экон. наук, проф. О. И. Лаврушина. – М.: Юрист, – 2002, 456-б.
5. "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami: – 2696, 2015-yil 14-iyul) Nizom.
6. "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi (ro'yxat raqami: – 3427, 2023-yil 18-aprel) Nizom.
7. www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti).
8. [https://t.me/bankers\\_uz](https://t.me/bankers_uz) nashri.
9. <https://t.me/bankxabar.uz> nashri.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.